

TEXNOLOGIYA FANINING OLTIN QOIDALARI

Masharipova Gulnora Zaripboyevna

Xorazm Viloyati Shovot tumani 16-sontumani

Jumaboyeva Soliya Dushamboyevna

Raximova Durdona Nuraddinovna

Shovot tumanidagi 14-sontumani maktabining Texnologiya fani o'qituvchilari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnologiya fanining oltin qoidalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: barkamol inson, texnologiya darslari, ustaxona, ijodkorlik qobiliyati, xavfsizlik qoidalari, qaychi, bigiz, pichoq, igna, yog'och, oshxona

Mamlakatimizda ta'lif sohasidagi izchil amalga oshirilayotgan isglarning asosiy g'oyasi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi. Barkamol shaxsning muhim sifatlari bo'lgan mehnasevarlik, kasbiy qiziquvchanlik, ijtimoiy faoliyat, tirishqoqlik, intizomlilik, tashabbuskorlik, ijodkorlik qobiliyatlarini tarbiyalash umumiyligi ta'lif muassasalarining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining markazida shaxs sifatlari turar ekan ta'lif metodlarini shu asosida tanlash va qo'llash ishlarini takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada o'quvchilarning faolligini oshirish, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, umumiyligi o'rta ta'lif maktablarida texnologiya darslari yoshlarni hayotga, kasb-hunarga tayyorlashda muhim o'ringa ega. Bu fan nihoyatda muhimligidan undan samarali foydalanishda muhim bo'lgan qoidalarni eslatib o'tamiz.

Texnologiyi fani alohida o'quv ustaxonalari kerak bo'lib ular materiallar, yarimfabrikatlar, tayyorlangan buyumlar saqlanadigan yordamchi xonalarga ega bo'ladi. Bunday xonalar quruq, yog'och poli, tabiiy va majburiy ventilyatsiyali, normal tabiiy va sun'iy (ish o'rniда 100-150 lyuks), yoritilgan, havosining temperaturasi qishda $14-16^{\circ}S$ bo'lishi va yozda 20 S dan oshmasligi kerak. Yoritgich sifatida kunduzgi lampadan foydalanish kerak. Ustaxona devorlari tekis, yorqin rangga, shifti oq ranga boyalishi kerak. Mana bularning hammasi xonaning yorug'ligrini oshiradi. O'quv ustaxonalarining maydoni, mavjud loyihalarga ko'ra, $70-90 m^2$ ni tashkil etadi. Ustaxonalar bir qavatli alohida binoga joylashgan bo'ladi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatdan bezatilishiga ham e'tibor berish kerak. Yorqin, fiziologik jihatdan asoslangan boyoqlar jihozlarning turli qismlari, ishlanuvchi ob'ektlar bilan ustaxonaning umumiyligi foni o'rtasida yaqqol farq bo'lishini ta'minlaydi. Ular ta'lif muassasasida ortiqcha shovqin bo'lmasisligi uchun o'quv dargohining asosiy binosidan bir oz nariroqda quriladi. Mazkur ustaxonalardan foydalanuvchilar quyidagi xavfsizlik qoidalariiga rioya qilishlari lozim. Ular quyidagilardan iborat bo'ladi...


I.XAVFSIZLIK QOIDALARI:

1. Har bir o'quvchi faqat o'z ish joyida ishlashi lozim.
2. Agarda ish jamoa tarzida bajariladigan bo'lsa, o'quvchilar o'zlari uchun belgilab berilgan majburiyatlarini yaxshi bilishlari zarur.
3. Ish faqat o'qituvchining ruxsati bilan boshlanadi.
4. Ishni boshlashdan oldin, ish joyingizni tayyorlang, ish quollarini to'g'ri va qulay joylashtiring: o'ng qo'l bilan ushlanadigan anjomlarni o'ng tomonga (qaychi, qalam, o'chirg'ich va hokazo), chap qo'l bilan ushlanadiganlari (qog'oz, yelim va boshqalar)ni chap tomonga qo'ying. Sanchiladigan, kesadigan anjomlarni hech qachon ikkita ish quroli orasiga qo'y mang. Ularni doimo o'z joyida, tartibli saqlang. Ish quollarini o'rinsiz ishlatmang.
5. Har doim ish joyingizni saranjom saqlang.
6. O'tmas yoki yaroqsiz ish anjomlari bilan ishlatmang.
7. Ish anjomlaridan foydalanganda, uni o'qituvchi ko'rsatganidek ushlang.
8. Ish anjomlarini asrang, ularni o'z o'rnida ishlating, foydalangandan so'ng tozalab – yuvib, artib qo'ying.
9. Belgilangan ishni yaxshiroq, chiroyliroq, tartibli bajarishga harakat qiling.
10. Dars davomida yaroqsiz holatga kelgan ish anjomlari to'g'risida o'qituvchingizni xabardor qiling.
11. Ishni tugatishingiz bilan ish o'rningizni tezda tozalab, tartibli qilib qo'ying.



II.QAYCHIDAN FOYDALANISH QOIDALARI

1. Qaychini belgilangan joyda, belgilangan holatda saqlang.
2. Qaychining uchini yuqoriga qaratib ushlatmang.
3. Qaychini ishlatib bo'lgandan so'ng ochiq holda qoldirmang.



4. Qaychini yurib turganingizda ishlatmang.
5. Qaychini faqat yopilgan holda uchidan ushlab o'rtog'ingizga uzating.



6. Qaychini ishlatayotganda qirqish chizig'i yo'nalishini hamda materialni ushlab turgan chap qo'l barmoqlarini kuzatib turing.
7. Yaroqsiz qaychini ishlatmang, uni o'qituvchingizga topshiring.




III. BIGIZDAN FOYDALANISH QOIDALARI

1. Avvalo bigiz bilan ishlaganingizda ustozingiz yoki ota-onangiz ko'magiga tayaning.
2. Bigizni o'rinsiz ishlatmang.
3. Sirti silliq va sirpanchiq bo'lgan qattiq predmetlarni bigiz bilan teshmang.
4. Teshiladigan predmetni qo'lingizda ushlamang, uni stol, taglik ustiga qo'yib teshing.




IV. PICHQ BILAN ISHLASH QOIDALARI

1. Kanselyariya pichog'idan o'qituvchingiz



yordamida foydalaning.

2. Kanselyariya pichog'ini o'qituvchi ko'rsatganidek ishlating, kesayotganda qattiq



bosmang.

V. IGNA BILAN ISHLASH QOIDALARI

1. Ignani ishlatib bo'lgach, maxsus yostiqchaga sanchib qo'ying.



2. Ignani hech qachon og'zingizga solmang.

VI. PAZANDACHILIK XONASIDA SANITARIYA-GIGIYENA QOIDALARI

1. Ovqat va pazandachilik mahsulotlarini pishirishda maxsus kiyimlar - ochiq rangli fartuk va qalpoq kiyish yoki oq ro'mol o'rab olish lozim.

2. Ovqatni tayyorlashga kirishishdan oldin qo'llarni sovun bilan yuvish? tirnoqlar olingen bo'lishi kerak.

3. Ovqat tayyorlashda imkon qadar yangi, sifatli mahsulotlardan foydalanish lozim.

4. Go'shtga, baliqqa birlamchi ishlov berishda maxsus tamg'alangan - «XG», «XB» taxtakach va pichoqlardan foydalanish kerak.

5. Ish o'mini tez-tez tozalash va har doim ozoda, pokiza saqlashga harakat qilish lozim.

6. Xona jihozlarining saranjomligi va ozodaligini ta'minlash lozim.

7. Toza idishlarni maxsus gigiyenik javonlarda saqlash kerak.

8. Chiqitlarni maxsus qopqoqli idishga solib o'z vaqtida chiqarib tashlash kerak.

VII. OSHXONADA ISHLAGANDA SHAXSIY GIGIYENA QOIDALARI

1. Ishga toza kiyimda va ozoda holda kelishi.

2. Tirnoqlar toza olingen bo'lishi.

3. Ishga tushish oldidan qo'lni sovunlab toza yuvish, toza fartukni kiyishi, sochlarni bosh kiyim ostiga olishi.

4. Shamollash alomatlari yoki yiringli yaralari, kuygan, kesilgan joylari bor bo'lsa ishga qo'yilmasligi.

5. Hojatxonaga kirishdan oldin maxsus kiyimlar yechiladi va chiqqandan so'ng qo'lsovunda tozalab yuviladi

VIII.YOG'OCHGA ISHLOV BERISHDA XAVFSIZLIK TEHNIKASI QOIDALARI.

1. Ish kiyimi to'g'ri kiyilganini tekshirish (xalatning qo'l va old tugmalari qadalgan bo'lishi kerak), bo'yinbog' uchlarini qistirish.

2. Ish o'rnini, asboblarni ko'zdan kechirish va ishlatishga tayyorligini tekshirish.

3. O'qituvchining ruxsatisiz ish o'rnidan uzoqlashmaslik.

4. Asboblar va xomashyolarni ehtiyyotkorlik bilan ishlatish.

5. O'qituvchining ruxsatisiz dastgohlarda ishlamaslik, tuzilishi o'rganilgan uskunalar dangina foydalanish.

6. Faqat ishga yaroqli asboblardan foydalanish, ularni o'z o'rnida ishlatish, asboblarni ish o'rniga ulardan foydalanish uchun qulay holatda joylashtirish.

7. Ish yakunlangandan keyin ish quollarini ko'zdan kechirish, nosoz asboblar to'g'risida o'qituvchini ogohlantirish.

8. Ish o'rnini payraxa va qipiqlardan maxsus cho'tka bilan tozalash.

9. Mehnatda xavfsizlik qoidalari buzilgan yoki jarohatlanish yuz bergan hollarda darrov o'qituvchiga xabar qilish....

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, eng hayotiy fan bo'lmish texnologiya fanining sir-sinoatlarini o'rganish orqali hayotga yana bir karra moslasha boramiz...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov va.boshqalar. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -T.: 2009,

2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov O.A.Qo'ysinov va bosh. Mehnat ta'limi 5-sinf darsligi T."Sharq" 2012,